

“TASDIQLAYMAN”
AT “Aloqabank” Korrupsiyaga
qarshi kurashish va etika
qo‘mitasi Raisi



2026 yil “20” iyul

AT “ALOQABANK” KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH
VA ETIKA QO‘MITASI YIG‘ILISHINING
3 — SONLI BAYONNOMASI

2026-yil “20” iyul

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:	O.Umarov
Qo‘mita a‘zolari:	R.Mamanov, Sh.Ro‘zikulov
Taklif etilganlar:	E.Amonov– Komplayens-nazorat boshqarmasi boshlig‘i

K U N T A R T I B I:

AT “Aloqabankda” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-270-son Farmoni, 2025 yil 21-aprelda “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-147-son qarori, 2022-yil 12-yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-sonli hamda 2022-yil 11-mayda “Davlat boshqaruv sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-240-sonli qarorlari ijrosi yuzasidan 2026-yilning 1-yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobot

(O. Umarov, R. Mamanov, Sh. Ro‘zikulov, E. Amonov)

Yig‘ilishda, AT “Aloqabank”da korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo‘yicha 2026-yilga mo‘ljallangan harakatlar dasturi” ishlab chiqilganligi va ushbu xaritada bankning barcha tarkibiy bo‘linmalari tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilab olinib tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelingan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat boshqaruv sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-240-sonli qarorlari ijrosi yuzasidan bankning barcha tarkibiy tarmoq xodimlarining xavf xavtarga moyillik darajasi baholanib chiqilganligi, o‘rta va yuqori darajadagi holatlarni oldini olish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar ijrosi ta‘minlanib

kelinayotganligi va ushbu ma'lumotlar hisobot tarzida O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan yo'lga qo'yilgan E-anticor elektron platformasiga kiritilib borilayotganligi haqida hisobot berildi.

Shuningdek, 2025-yil 21-apreldagi "Davlat organlari va tashkilotlarining korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-147-son qarorida Davlat organlari va tashkilotlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlarida korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarini tashkil etishning minimal mezonlari belgilanganligi, unga muvofiq davlat organlari va tashkilotlarining tizimidagi tarkibiy tashkilotning shtatlar soni 100 ta va undan kam bo'lsa hamda tarkibiy tashkilotning o'zida hududiy yoki tarkibiy tashkilotlar mavjud bo'lmasa, ushbu tarkibiy tashkilotning korruptsiyaga qarshi kurashish faoliyati davlat organi va tashkilotining markaziy apparatidagi korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Hozirda, AT "Aloqabank"ning aksariyat hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazlarida xodimlar soni 100 nafardan kam ekanligi, Bankning Komplayens nazorat boshqarmasi tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashish faoliyati muvofiqlashtirilib borishligi, biroq Bankning tarkibiy va hududiy bo'linmalarida 1 nafardan Komplayens nazorat boshqarmasining vakili (ambassador) belgilanishi maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi.

Shu bilan birga, "E-anticor" platformasida Bankning 22 ta funksiyalarda korruptsiyaviy xavf-xatarlar baxolangan bo'lib, ushbu xavflarni minimallashtirish uchun tegishli choralar ko'rish zarurligi qayd etildi.

Bundan tashqari, Korruptsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish bo'yicha monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazib borish, kelib tushgan murojaatlarni o'rganish hamda aniqlangan holatlar yuzasidan sifatli xizmat tekshiruvlari o'tkazilishini ta'minlash, xodimlarni bilim saviyasini oshirish yuzasidan o'quv mashg'ulotlari va tegishli targ'ibot tadbirlarini o'tkazib borish lozimligi aytib o'tildi.

**Bank Korruptsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi
ushbu masalalarni muhokama qilib,
Q A R O R Q I L A D I:**

1. AT "Aloqabank" Komplayens-nazorat boshqarmasining 2026-yilning 1-yarim yilligi bo'yicha hisoboti ilovaga muvofiq ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. AT "Aloqabank" Boshqaruvining farmoyishiga asosan tegishli vazifalar ko'rsatilgan holda Komplayens nazorat boshqarmasiga Bosh ofis tarkibiy bo'linmalari, hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazlari hamda tizim tashkilotlaridan bir nafar xodimlar vakil (ambassador) sifatida biriktirilsin.

Mazkur vakillar Komplayens nazorat boshqarmasi tomonidan berilgan tashabusslariga hamda Bank Boshqaruvi ko'rsatmalariga asosan korruptsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olish, korruptsiyaviy xavflarni minimallashtirish, manfaatlar to'qnashuvini barvaqt aniqlash, bartaraf etish va kelgusida yo'l qo'ymaslik bo'yicha tegishli ishlarni bajarishga ko'maklashi belgilab qo'yilsin.

3. Komplayens-nazorat boshqarmasi (E.Amonov) bankning tegishli tarmoqlari bilan birgalikda mazkur qaror talablaridan kelib chiqadigan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida, Bankda korruptsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish bo'yicha kelgusida Bankning tegishli tarkibiy tarmoqlari bilan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni E-anticor elektron platformasiga o'z vaqtida va sifatli kiritilishi ta'minlansin va 2026-yil natijalari bilan yuqori ko'rsatkichlarga erishish yuzasidan tegishli vazifalar amalga oshirilsin.

Kun tartibidagi ushbu masala bo'yicha ovoz berish natijalari quyidagicha:

Tarafdorlar – foiz; Qarshilar – foiz; Betaraflar – foiz;

Ovoz berish natijasi

F.I.Sh. Mamanov Ruslanbek Abduxalikovich

Masala	Javob	Imzo
AT "Aloqabank" Komplayens-nazorat boshqarmasining 2026-yilning 1-yarim yilligi bo'yicha hisoboti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.	Tarafdor	 HUJJAT ELEKTRON IMZO BILAN IMZOLANGAN Sertifikat: 70d2b8b815d72bb817bbadcbefdb5c1f9f23597a Egasi: Mamanov Ruslanbek Abduxalikovich Lavozimi: Kengash a'zosi Muddati: 26.12.2024 yildan 26.12.2026 yilgacha amalda

F.I.Sh. Ro'zikulov Shohrux Toxirovich

Masala	Javob	Imzo
AT "Aloqabank" Komplayens-nazorat boshqarmasining 2026-yilning 1-yarim yilligi bo'yicha hisoboti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.	Tarafdor	 HUJJAT ELEKTRON IMZO BILAN IMZOLANGAN Sertifikat: 0080b58fc130af444c20cbc6b63ff02411c772a Egasi: Ro'zikulov Shohrux Toxirovich Lavozimi: Kengash a'zosi Muddati: 27.02.2026 yildan 27.02.2028 yilgacha amalda

F.I.Sh. Umarov Olimjon Muxamadjanovich

Masala	Javob	Imzo
AT "Aloqabank" Komplayens-nazorat boshqarmasining 2026-yilning 1-yarim yilligi bo'yicha hisoboti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.	Tarafdor	 HUJJAT ELEKTRON IMZO BILAN IMZOLANGAN Sertifikat: c1057ca95f45e7483b580c0407c62d4caa00653c Egasi: Umarov Olimjon Muxamadjanovich Lavozimi: Kengash a'zosi Muddati: 20.01.2026 yildan 20.01.2028 yilgacha amalda

Jami:

Masala: № 1

AT "Aloqabank" Komplayens-nazorat boshqarmasining 2026-yilning 1-yarim yilligi bo'yicha hisoboti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

Tarafdorlar	3	100 %
Qarshilar	0	0 %
Betaraflar	0	0 %

Yig'ilish kotibi:

 HUJJAT ELEKTRON IMZO BILAN IMZOLANGAN Sertifikat: 59efbb7619d93ae06c65de0923baf5e26d16b6c2 Egasi: Amonov Erkin Voxidovich Lavozimi: Boshqarma boshlig'i Muddati: 29.01.2025 yildan 29.01.2027 yilgacha amalda
